

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida
“Islahotlar bilimdoni” ilmiy-maʼrifiy koʻrik-tanlovini
oʻtkazish boʻyicha yigʻilish

BAYONNOMASI

TDIU Samarqand filiali
kichik majlislar zali

22.10.2025-yil
soat 11-00

QATNASHDILAR:

Yigʻilish raisi - Yoshlar masalalari va maʼnaviy-
maʼrifiy ishlar boʻyicha direktorning birinchi oʻrinbosari
X.Turdibekov, yigʻilish kotibi S.Sadullayev, barcha kafedra
mudirlari, professor-oʻqituvchilar (jami 12 kishi)

KUN TARTIBI:

“Islahotlar bilimdoni” ilmiy-maʼrifiy koʻrik-tanlovini oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida

ESHITILDI: Yoshlar masalalari va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha direktorning birinchi oʻrinbosari X.Turdibekov kirish soʻzi bilan ochib berdi. “Islahotlar bilimdoni” ilmiy-maʼrifiy koʻrik-tanlovini oʻtkazishimizdan maqsad filialda yoshlarni “Yangi Oʻzbekiston - yangicha dunyoqarash!” gʻoyasi atrofida birlashtirish, taʼlim va tarbiya tizimi uzviyligini taʼminlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, maʼnaviy-maʼrifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish, oila, mahalla, taʼlim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-maʼnaviy muhitni oʻrganish va sogʻlomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, jamiyatda uzluksiz maʼnaviy-ahloqiy tarbiya va targʻibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yoʻnalishlari, taʼsirchan, kreativ va innovasion uslublarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etishdan iborat.

Talaba-yoshlarning ijtimoiy-maʼnaviy hayotida bunyodkorlik gʻoyalarini kuchaytirish, diniy bagʻrikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash, filialda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlar, bilim olayotgan yoshlarning ijodiy faolligi va siyosiy madaniyatini oshirish, yoshlar ongiga Oʻzbekistonda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari olib borilayotgan islohotlar mazmunini tushunish va uni qadrlash darajasini aniqlash, mamlakatimizda intellektual mulkni aniqlash va ularning ijodiy faoliyatini har jihatdan qoʻllab-quvvatlashdan iborat.

“Islahotlar bilimdoni” ilmiy-maʼrifiy koʻrik-tanlovi shuningdek, yoshlar ongida yangilanayotgan Oʻzbekistonda uchinchi Renessansning poydevori qoʻyilganligiga ijtimoiy munosabatni hamda yurt tinchligi, vatan ravnaqini taʼminlash yoʻlida amalga oshirilayotgan misli koʻrilmagan yutuqlarga nisbatan daxldorlik tuygʻusini, mafkuraviy

immunitetini shakllantirish maqsadida tashkil etilmoqda. Shu maqsadda filialda talabalarning ilmiy-ma'rifiy faolligini oshirish maqsadida "Islohotlar bilimdoni" ilmiy-ma'rifiy ko'rik-tanlovi e'lon qilindi.

Birinchi bosqich bo'yicha arizalar qabul qilindi va saralash bosqichi o'tkazildi bunda ko'rik-tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan 16 nafar nomzodlardan arizalar qabul qilinib, belgilangan shartlar bo'yicha saralandi.

Iqtisodiyot fakulteti IQT-124-guruh talabasi Xabibov Saidkamol Xalimxon o'g'li tanlov shartlariga ko'ra "**Eng faol islohotlar targ'ibotchisi**" nominasiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

QAROR QILINDI:

1. 2025-yilning 22-oktyabr kuni filialda o'tkazilgan "Islohotlar bilimdoni" ilmiy-ma'rifiy ko'rik-tanlovda Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich IQT-124-guruh talabasi Xabibov Saidkamol Xalimxon o'g'li "**Eng faol islohotlar targ'ibotchisi**" nominasiyasi bo'yicha g'olib deb topilsin va belgilangan tartibda rag'batlantirilsin.

Yig'ilish raisi:

X.I.Turdibekov

Yig'ilish kotibi:

S.X.Sadullayev

